

XUSRAV VA FARHOD OBRAZLARIGA CHIZGILAR

Shamsimatova Maxfuza Baxtiyor qizi

TDSHU Mumtoz filologiya I-kurs magistranti

Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni ushbu turkumda yaratilgan boshqa dostonlardan o‘zining murakkab ishqiy sarguzashtlarga boyligi va obrazlar rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu mavzuda bitilgan aksar asarlar mazkur dostonga hamohang tarzda yaratilgani barchamizga ma’lum. To‘g‘ri, Nizomiyga qadar ham “Xusrav va Shirin”ga oid tarixiy manbalar va ayrim ma’lumotlar uchraydi, biroq aynan bu voqealarni bir sujet ipiga terib, ishqiy sarguzasht holatiga keltirish Nizomiy ijodidan boshlanadi.

Fors-tojik adabiyotining bu buyuk asarini Qutb Xorazmiy ba’zi o‘zgartirishlar va ayrim qisqartmalar kiritib, turkiy tilga mahorat bilan tarjima qilgan. Bir qarashda bu asarni tarjima asar deyish qiyin, negaki, Qutb asarga shunchaki tarjima qilish nuqtayi nazar bilan qaramay, haqiqiy ijodiy asar namunasi sifatida yondashadi.

U: “ushbu forsi tilini chevurdim”, deydi. Tarjimaga nisbatan ilk bora “chevurmoq” so‘zini qo‘llaydi. Bu so‘z “o‘g‘irish”, “ag‘darish”, “urish” kabi tarjima qilish ma‘nosini anglatadigan so‘zlar yoniga juda go‘zal va obrazli sinonim bo‘lib qo‘shildi. U yana bir tarzda aylantirmoq degan ma‘noni ham bildiradi. So‘zlarni bir tildan ikkinchi tilga aylantirish.¹

Qutb o‘z asarining debochasida tarjima jarayonining juda muhim prinsiplaridan birini tilga oladi:

Qazontek qaynab ush savdo pishurdim

Nizomiy bolidan halvo pishurdim...²

Qutb Nizomiyning jon-dilidan sevgan va hatto, o‘ziga pir sifatida ko‘rgan. Shundan bo‘lsa kerak, u “Xusrav va Shirin”ga oddiy tarjima asar sifatida emas, balki uni turkiyga ag‘darar ekan Nizomiy sifatida qaraydi, bu haqida shoirning o‘zi shunday deydi:

Jonim ishqdin farah tobtu esa bildim,

Ko‘ngil berdim, yeringa ishq oldim.

Bu ishqim birla boshlab dostonni,

Salo teb ishqqa undadim jahonni.³

Qutbning asarga ijodkorona yondashuvi, dostonning asl nusxasi va uning tarjimasi birgalikda o‘qilganida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Har bir til o‘ziga xos qurilish, o‘ziga xos xususiyat va milliy ruhga ega. Qutb turkiy tilning ana shu jihatlarini boricha yuzaga chiqargan.

Nizomiyda:

Naxustin bar guftash: K-az kujoiy?

Biguft: az dori mulki oshnoyi.

Biguft: on jo ba san‘at dar chi ko‘shand?

Biguft: anduh xarandu jon furushand.

¹ G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. “Tafakkur bo‘stoni” nashr., Toshkent. 2012. – B.61.

² O‘sha asar. – B.65

³ Xorazmiy Q. Xusrav va Shirin (Nizomiydan tarjima). “G‘afur Gulom nomidagi Adabiyot va san‘at” nashriyoti, Toshkent. 1986. – B.10

Bigufto: jon furushi dar adab nest,
Biguft: az ishqbozon in ajab nest...

QUTBDA:

Burun so'rdi: ne yerliksan, tiyu san?
Ayittikim: oshiqqlar shahridanman.
Ayitti: onda ne san'at qilurlar?
Ayitti: jon sotib qazg'u olurlar.
Ayitti: jonni sotmoqlik xato ul
Ayitti: ishq yo'lida ham ravo ul...⁴

Asar an'anaviy muqaddimadan so'ng Xusrav Parvizning tug'ilishi tufayli uyushtirilgan bazm tasviri bilan boshlanadi. Dostonning bu o'rni qolgan shu kabi dostonlarga birmuncha o'xshash: podshohning necha yillardan beri Yaratgandan o'g'il tilayotgani va ushbu kun murodiga yetgani bayon qilinadi.

O'g'anning baxshishi daryosidin dur,
Aning sham'inga bermish fazlidin nur.
Muborak tolei davlat makoni,
Yuzunda belguluk shohliq nishoni.
Yetiz xusravliqin ko'rdi atosi,
Ush ondin o'tru Parviz, bo'ldi oti
Zarifluq ichra komil erdi zoti,
Bu yo'ldin o'tru Xusrav Parviz, bo'ldi oti⁵

Asarda berilgan ushbu satrlardan shu anglashiladiki, chiroyda tengsiz bo'lgan bu go'dak nihoyatda tez ulg'ayadi, ham aqlan, ham jismonan yuksak iste'dodga ega bo'lib o'sadi. Biroq Xusrav tug'ilishidanoq unga "yuzunda belguluk shohliq nishoni" sifatida shohlik maqomi berilgan edi, u asarda sof ishqdan holi, vafodan yiroq, beqaror inson sifatida gavdalantirilgan. U Shopurdan tog'lar vodiysi Barda malikasi Shirin haqida eshitadi va unga g'oyibona oshiq bo'lib qoladi. Lekin bu ishq haqiqiy emas edi, yo'qsa Shirin xabarini eshitgan Xusrav uning yurtiga Shopurni yubormay, o'zi borgan bo'lardi.

Dostonda Xusrav xarakteri kitobxonga nafaqat tashqi ko'rinishi jihatidan, balki xatti-harakati, yurush-turushi bilan ham yaqqonroq ko'rsatilgan. U shu ruhda yaratilgan yana bir doston "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhoddan birmuncha farqlanadi. Ta'kidlab o'tishimiz joizki, Farhod tug'ilishidanoq haqiqiy ishq bilan tug'ilgan:

Bu nav ermas ato qo'ymadi otin
Ki, ko'rgach ishq aning pokiza zotin.
Anga farzona Farhod ism qo'ydi,
Hurufi ma'xazin besh qism qo'ydi.
Firoq-u, rashk-u, hajr-u, oh ila dard,
Birar harf ibtidodin aylabon fard.⁶

⁴ G'afurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. "Tafakkur bo'stoni" nashr., Toshkent. 2012. -B.65.

⁵ Xorazmiy Q. Xusrav va Shirin (Nizomiydan tarjima). "G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at" nashriyoti, Toshkent. 1986. -B.11.

Chaqaloqning yuzida “farri shohiy”, ya’ni shohlik nuri porlab turardi. Bu nur soyasi ostida esa himmat, iqbol hamda davlat o’rin olgan edi. Shoh “far” so’ziga himmat, iqbol va davlat so’zlarining bosh harflarini qo’shgan edi, Farhod ismi hosil bo’ldi. Bolani ana shu ism bilan atadilar-da, ipak matolarga o’rab beshikka beladilar. Lekin bu ismni otasigina qo’ygan emasdi. Chaqaloqning pokiza zotini ko’rgan ishq ham unga Farhod ismin qo’ygan va uni firoq, rashk, hajr, oh va dard so’zlarining bosh harflaridan tanlagan edi.⁷

Garchi biz yuqorida ko’rib o’tganimiz – shahzodalarning tug’ilishi, ularning dunyo yuzini ko’rganligida otalarining quvonchlari, go’daklarning yuksak iste’dodga ega bo’lib voyaga yetishlari, har ikkala dostonida ham bir-biriga hamohang, mazmunan o’xshasa-da, ularni o’zaro farqlovchi jihatlar ham talaygina: Xusrav qanchalar zo’r qobiliyat egasi bo’lmasin, uning tabiatida yengiltaklik va beqarorlik ham mavjud edi. U voya yetgach taxt uchun kurashga shong’ib ketadi. Bu yo’lda Xusrav Maryamga uylanishga majbur bo’ladi. Maryam vafotidan so’ng, isfahonlik Shakarning go’zalligini eshitib unga ham ko’ngil qo’yadi va uylanadi. Ishqda beqaror bu shoh Shiringa vafo qilmaydi va asarning so’nggida ayanchli o’lim topadi.

Navoiy asarida bu kabi hudbin, sof ishqdan mahrum shoh obrazini o’z dostonining bosh qahramoni deb bilmaydi. Navoiy fikricha, shohlik o’zgardir, oshiqlik o’zga. Shuning uchun ham u dostonning yana bir kichik qahramoni bo’lmish Farhod obrazini o’z asarining bosh qahramoni darajasiga ko’taradi va Xusravni ishqdan yiroq shoh obrazi sifatida gavdalantiradi. Farhod Xusravdan farqli o’laroq, ishq bilan tug’ilgan, nihoyatda zukko va favqulodda qobiliyatlar egasi bo’lib ulg’ayadi. Katta bo’lgach o’ziga taklif qilingan davlat boshqaruvini ham, shohlikni ham rad etadi. U Shirin uchun kurashadi, uning qiyofasida haqiqiy ishni ko’radi. Ishq yo’lida Farhod oldiga qo’yilgan mashaqqatlarni-yu, turfa xil sinovlarni mardonavor yengib o’tadi.

Umuman olganda, mumtoz adabiyotimizning yirik asarlari hisoblangan dostonlardagi Xusrav va Farhod obrazlarini tadqiq etish, ilmiy-nazariy jihatdan o’rganish bugungi kun adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to’plami (sakkizinchi tom). Adabiyot instituti H.S.Sulaymonov nomidagi Qo’lyozmalar instituti, Toshkent. 1991.
2. Navoiy A. Xamsa. “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent. 2016.
3. Xorazmiy Q. Xusrav va Shirin (Nizomiydan tarjima). “G’afur Gulom nomidagi Adabiyot va san’at” nashriyoti, Toshkent. 1986.
4. G’afurov I., Mo’minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. “Tafakkur bo’stoni” nashr., Toshkent. 2012.

⁶ Navoiy A. Mukammal asarlar to’plami (sakkizinchi tom). Adabiyot instituti H.S.Sulaymonov nomidagi Qo’lyozmalar instituti, Toshkent. 1991. –B.55.

⁷ Navoiy A. Xamsa. “Yangi asr avlodi” nashriyoti, Toshkent. 2016. –B.106.